

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISH VA BUNDA OTA-ONALAR ROLI

Meliqo’ziyev Abduraxmon

Maxsus pedagogika: defektologiya (Surdopedagogika)

yo’nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish va bunda ota-onalar roli va mavzuning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Kar bola, zaif eshituvchi bola, tafakkur, tasavvur, korreksiya, bilish jarayonlar, kompensatsiya, oila, tarbiya, xotira.

Tarbiya va ta’lim o‘tmish pedagogik madaniyat haqida tushunchaga ega bo‘lish faqat o‘qituvchilar va tarbiyachilar, bo‘lajak pedagoglar uchungina emas, balki har bir kishi, shu jumladan, ota-onalar uchun ham foydalidir.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan shu narsa ma’lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila jamiyat hayotini olg‘a suruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga ko‘tarib, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab, yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun ma’sul bo‘lgan g‘oyat muhim o‘choqdir. Farzand ko‘rish, uni tarbiyalash, insonlarga, jamiyatga halol xizmat qilishga qodir shaxs qilib voyaga yetkazish har bir ota-onaning ijtimoiy-ma’naviy va huquqiy burchi hisoblanadi. Bu burchni anglab yetish va uni halol ado etish ota-onalar uchun ham qarz, ham farzdir.

Kelajagimizning qanday bo‘lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog‘liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi, moddiy va ma’naviy boylikni yaratuvchi asos oiladir. Oila jamiyatning boshlang‘ich ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida murakkab tarkibga ega bo‘lib, u o‘z faoliyatida oila a’zolarining ehtiyoji va qobiliyati, turli faoliyatining maqsad va vazifalarinigina emas, balki tarbiyaviy faoliyatini ham aks ettiradi. Uning murakkab va ko‘p qirrali faoliyatining hayotiyliigi ikki tomonlamadir:

-birinchidan, jamiyatning kichik bir bo‘lagi, ijtimoiy o‘zgarishlarni o‘ta sezgirlik bilan anglagan holda, ularni o‘zida aks ettiradigan belgidir. Shunga ko‘ra ota-

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

onalarning oiladagi bolaga tarbiya berishga oid faoliyatini ijtimoiy tarbiyaning asosiy qismlaridan biri deb hisoblash kerak;

- ikkinchidan, oilaning murakkab, ma'suliyatli va serqirra faoliyati uning vazifalari va tuzilishiga, ijtimoiy turmush tarziga, oila a'zolarining ijtimoiy faoliyatlariga, ularning barcha qiziqishlari, ehtiyojlari va munosabatlariga chambarchas bog'liqligini e'tiborga olish lozim.

Oilada nogiron bolaning dunyoga kelishi esa oila va butun jamiyat zimmasiga yanada mas'uliyatliroq vazifalarni yuklaydi. Bolalikdan nogironlik ko'rinishlari orasida eshitishida nuqsoni bor bolaning nuqsoni nogironlikka olib keluvchi kasallikdir.

Hozirgi paytda Respublikamizda xalq ta'limi tizimida maxsus ta'lim tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi¹ va O'zbekiston Respublikasining Ta'lim qonuni to'g'risidagi qonunga muvofiq tashkil etiladi va nazorat qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida quyidagilar belgilab qo'yilgan:

1. oila jamiyatning boshlang'ich bir bo'g'ini bo'lib, oila, otalik, onalik hamda bolalik butun jamiyat g'amxo'rligida bo'ladi hamda qonun tomonidan ustuvor tarzda himoya qilinadi. Bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ularning tarbiyasi ota-onalarining tabiiy xuquqi va fuqarolik burchidir. Balog'atga yetgan, mehnatga layoqatli bo'lgan bolalar ota-onalariga g'amxo'rlik qilishga majburlar.

2. davlat yetim bolalarni hamda ota-onalar homiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash, o'qitishni ta'minlaydi.

Nogironlarning xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat tomonidan sud yo'li bilan yoki qonunda belgilangan tartibda ta'minlanadi. Respublikada har bir fuqaro vakolatli davlat idorasining nogiron deb topgan yoki topa olmaganligi qaroriga norozi bo'lgan fuqarolarning huquqini himoya qilishni talab etib, yuqori tashkilotlarga murojat etishga haqlidir. Nogironlarning xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzishda aybdor bo'lgan mas'ul shaxslar qonunda belgilangan moddiy, intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Nogironlarni kamsitish ta'qiqlanadi va qonunga muvofiq jazolanadi. Bugungi kunda Respublikamizda maxsus pedagogika sohasida olib boriladigan nazariy va amaliy ishlarda mana shu hujjatlarga asoslanib ish tutish lozim. D.D.Sharipova nogiron bolalarga qonunchilikda belgilangan kafolatlarni

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент «Ўзбекистон», 1998

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

to‘laqonli yetkazish, tibbiy-ijtimoiy ishlarni keng ko‘lamda o‘tkazish, ularni kelajak hayotga, jamiyatga moslashtirish va o‘z o‘rinlarini topishlarida yordam ko‘rsatish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri ekanligini alohida qayd etadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning kompleks tarbiyasida, ya’ni korreksion tarbiyaviy vazifalarni bir tizimga solishda defektolog va ota-onalar hamkorligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish katta ahamiyat kasb etadi.

Afsuski, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ota-onalari orasida qisman bo‘lsa-da farzandlari oldidagi majburiyatlariga loqayd bo‘lganlari ham borligi, pedagogik savodxonlik yetishmagan ota-onalar ham borligi achinarli xoldir. Maxsus pedagogika oldida mana shu kamchiliklarni tuzatish va bartaraf etish vazifalari ham turadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchi tarbiyasining o‘ziga xosligi shundaki, u bolaning o‘z-o‘ziga xizmat qilishga o‘rgatish, bu borada muayyan bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish, bolaning mavjud aqliy, ruhiy, nutqiy va eshitish idrokini rivojlantirish, faoliyat ko‘rsata olish imkoniyatlarini o‘stirish bilangina cheklanmaydi, balki nogiron bola ongida ota-onalariga nisbatan qon-qarindoshlik hislatlarini singdirib, mustahkamlab, bolalar shaxsining umumiy va hissiy rivojlanishini ham ta’minlab beradi va pirovard natijada bolaning aqliy, ahloqiy takomilida yaxshi natijalarga erishish imkonini yaratadi.

Shu sababli bolalarni har tomonlama kompleks korreksion tarbiyalashda ko‘rgazmalilik va qo‘llanayotgan vositalarning turli-tumanligi va qiziqarliligi bilan bir qatorda, bola avvalambor tarbiyachining va, ayniqsa, ota-onaning mehrini sezib turishi kerak. Bu ishda hulk, odobga doir tadbirlarni bolaga to‘g‘ri o‘rgatish, maslahat berish va nasihat qilish, kattalar tajribasiga amal qilishga undashdan ko‘ra (bu tarbiya vositalarining roli va o‘rnini kamsitmagan holda) oilaning turmush tarzi, ma’naviy-ruhiy muhiti, bola kuzatishi mumkin bo‘lgan o‘zaro munosabatlar, ota-onalarning kasb-hunari asosiy vazifani o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyaotlar:

1. Рахимова, Хуршидахон Содиковна. "FACTORS IN THE FORMATION OF MOTIVATION FOR INDEPENDENCE IN CHILDREN ON THE BASIS OF AUDITORY AND SPEECH REHABILITATION AFTER COCHLEAR IMPLANTATION." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.10 (2020): 391-396.

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

2. Тешабоева, Ф. Р. (2020). PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE" SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE" AT THE UNIVERSITY. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-7), 229-232
3. Sodiqjon o'g'li, Akbarov Sardor. "O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING JORIY HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLARI." Conference Zone. 2022.
4. Sodiqjon o'g'li, Akbarov Sardorjon. "INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI." Conference Zone. 2022.
5. Shermatovna, Erkaboyeva Nigora, and Akbarov Sardor Sodiqjon O'g'li. "Conditions of inclusive education." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.7 (2022): 1-4.
6. Teshaboeva F.R. Effective factors for the organization of theoretical training in the module" Special methods of teaching the mother tongue" in the field of higher defectological education. Scientific Bulletin of Namangan State University 2 (10), 383-387
7. Sobirxonovna, M. M. (2020). An Innovative Mechanisms to Increase the Effectiveness of Independent Education of Future Defectologists. International Journal on Integrated Education, 3(11), 210-211.8.
8. Sobirxonovna, M. M. (2020, December). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE SPEAKERS IN THE PERIOD OF INDEPENDENT STUDY. In Archive of Conferences (Vol. 10, No. 1, pp. 75-76).
9. Solievna, Mirboboyeva Nodiraxon. "GAME TEACHING TECHNIQUES FOR PRESCHOOL CHILDREN." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.4 (2022): 1260-1262.
10. Solievna, Mirboboyeva Nodiraxon. "DIFFERENCE BETWEEN MENTAL WEAKNESS AND SIMILAR STATUS." Archive of Conferences. Vol. 15. No. 1. 2021.
11. Rahimna, Teshaboeva Feruza. "THE USE OF COMPUTER GAMES TO DEVELOP SPEECH CAPABILITIES FOR CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY." In Conference Zone, pp. 130-132. 2022.
12. Тешабоева, Ф. Р. "PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE" SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE" AT THE UNIVERSITY." Актуальные научные исследования в современном мире 5-7 (2020): 229-232.

13. Raximovna, Teshaboeva Feruza. "Didactic and motivational opportunities for the use of variable approaches to increase the professional competence of future defectologists." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.4 (2022): 1256-1259.
14. Mahmudova, M. S. (2020). THE ROLE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PROSPECTIVE SPEECH THERAPISTS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(10), 358-363.
15. Mahmudova, M. S. (2020). THE ROLE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PROSPECTIVE SPEECH THERAPISTS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(10), 358-363.
16. Тешабоева, Ф. Р. (2020). PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE "SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE" AT THE UNIVERSITY. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-7), 229-232.
17. Makhmudov Khurshid Shukhratovich. IMPORTANCE OF DIDACTIC GAMES IN SPEECH DEVELOPMENT OF MENTALLY RETARDED CHILDREN. *Asian Journal of Multidimensional Research*. ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal. Pages 20-23.
18. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF SPEECH SKILLS IN CHILDREN WITH HEARING DISABILITIES." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.
19. Yuldashevna, Ayupova Mukarramxon, and Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. "CORRECTION-PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF PREPARATION OF CHILDREN FOR INDEPENDENT ACTIVITY AFTER COCHLEAR IMPLANTATION." *Archive of Conferences*. Vol. 10. No. 1. 2020.
20. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon, and Kadyrova Mahzuna Shamshidinovna. "DEVELOPING HEARING PERCEPTION IN HEARING-IMPAIRED CHILDREN OF PRESCHOOL AGE." (2021).

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

21. Kodirova F.U., Matupaeva S.Z., Teshaboeva F.R. Methodical cluster-an innovative mechanism to increase the efficiency of general secondary and inclusive education. [//http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/08/5](http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/08/5).
22. Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. PREPARATION OF PRESCHOOL CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS FOR INDEPENDENT LEARNING. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 8, 2020 Part III, ISSN 2056-5852. Page 159-161.
23. Sadikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Objectives and tasks of cochlear implantation." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.4 (2022): 1250-1255.
24. Sodiqovna, R. K., & Zulfiya, A. Formation of Independence Motivation Based on Rehabilitation Work with Children with Cochlear Implants. International Journal on Integrated Education, 3(10), 310-312.
25. Solievna, Mirboboyeva Nodiraxon, and Habibullayeva Madinahon. "MODERN APPROACHES TO DEVELOPMENTAL DISABILITIES IN CHILDREN WITH DISABILITIES." (2021).
26. Soliyevna, Mirboboyeva Nodirakhon. "METHODS USED TO EXAMINE MENTALLY RETARDED CHILDREN." (2021).
27. Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna, HEARING-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS AS A SOCIO-PEDAGOGICAL PROBLEM. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal, Pages 6-9.
28. Mirbabaeva Nadirakhan, CHILDREN WITH DELAYED MENTAL DEVELOPMENT. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal, Pages 15-19
29. Xonbabayev SH.D. (2022). Socio-Pedagogical Basis of Spiritual and Spiritual Education Mechanisms in Society and Foreign Experiences. International Journal of Culture and Modernity, 285-292
30. Xonbabayev Sh.D. (2022). Innovative-pedagogical basis of development of the process of spiritual education. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, 199-202 (EMJ-MS).